



ISMOIL GASPRINSKIYNING INTELLEKTUAL MEROSIDA  
MODERNIZATSIYA KONSEPSIYASI

*Shomuqimov L.R.*

*TDSHU, Sharq falsafasi va madaniyati yo'nalishi*

*1- kurs magistranti*

*Izzetova E.M.*

*Falsafa fanlari doktori, professor,*

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

**Annotatsiya.** Modernizatsiya konsepsiyasi turkiy xalqlarda yuzaga kelgan, Ismoil Gasprinskiy tomonidan ilgari surilgan va o'zgarishlarni amalga oshirishni nazarda tutgan siyosiy, ijtimoiy va madaniy g'oyalalar majmuasidir. Gasprinskiy turkiy xalqlar, ayniqsa, Turkiston va Qozog'iston hududlarida ta'sir o'zgartirishni xoxlagan o'z zamonasining yetakchi fikr egalaridan biri xisoblanadi. Uning konsepsiyasining asosiy g'oyalari quyidagilardan edi. Turkiston va turkiy xalqlar birligi, Ilm va ta'limdi rivojlantirish, Ijtimoiy islohotlar, Ismoil Gasprinskiyning konsepsiyasi turkiy dunyo va musulmonlar orasida ilgari surilgan o'zgarishlarga intilishning asosiy belgisi bo'lib, bu fikrlar o'z davrida muhim siyosiy va madaniy o'zgarishlarga olib kelgan.

**Kalit so'zlar:** Gasprinskiy, modernizatsiya, tafakkur islohoti, jadidchilik, ta'lim, matbuot, milliy uyg'onish, ilm-ma'rifat, mustamlaka, ayollar huquqi.

**Аннотация.** Концепция модернизации это совокупность политических, социальных и культурных идей, берущих начало у тюркских народов, созданная Исмаилом Гаспринским и призванная осуществить перемены. Гаспринский был одним из мыслителей своего времени, стремившихся оказать влияние на тюркские народы, особенно на подвластные ему Туркестан и Казахстан. Он был основан на его идеях.



Единство Туркестана и тюркских народов, развитие науки и образования, социальных процессов, консультации Исмаила Гаспринского являются ключевым признаком стремления к радикальным переменам, созданным тюркским миром и мусульманами, что привело к значительным политическим и культурным изменениям.

**Ключевые слова:** Гаспринский, модернизация, джадидизм, образование, пресса, национальное возрождение, наука и образование, колониализм, права женщин

**Abstract.** The concept of modernization is a set of political, social and cultural ideas originating from the Turkic peoples, created by Ismail Gasprinsky and called to implement changes. Gasprinsky was one of the thinkers of his time who sought to influence the Turkic peoples, especially the Turkestan and Kazakhstan under his control. It was based on his ideas. The unity of Turkestan and the Turkic peoples, the development of science and education, social processes, consultations of Ismail Gasprinsky are the key feature of the desire for radical changes created by the Turkic world and Muslims, which led to significant political and cultural changes.

**Keywords:** Gasprinsky, modernization, reform of thought, Jadidism, education, press, national revival, science and education, colonialism, women's rights

## KIRISH

Ismoil Gasprinskiy turkiy xalqlarni ijtimoiy-madaniy qoloqlikdan xalos qilish uchun ularning tafakkurini, dunyoqarashini o‘zgartirish zarurligini tushundi. Uning faoliyati shunchaki ta’lim yoki matbuotni rivojlantirish harakati emas, balki dunyoqarashni yangilashga qaratilgan intellektual inqilob edi.

Gasprinskiy modernizatsiyani faqat tashqi texnologik taraqqiyot yoki G‘arb madaniyatini taqlid qilish sifatida ko‘rmagan. Aksincha, u modernizatsiyani ichki tafakkur islohoti sifatida tushungan. Bu esa modernizatsiya jarayonini millatning



o‘z ichidan boshlab, uning tarixiy-madaniy ildizlarini saqlagan holda amalga oshirish g‘oyasiga asoslangan edi.

Ismoil Gasprinskiyning modernizatsiya konsepsiyasini tushunish uchun tarixiy, falsafiy va sotsiologik adabiyotlarga murojaat qilish zarur. Uning qarashlari, ayniqsa, jadidchilik harakati va musulmon dunyosidagi islohotlar bilan bog‘liq bo‘lib, turli tadqiqotlar va asarlarda chuqur tahlil qilingan<sup>1</sup>.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Gasprinskiyning “Tarjimon” gazetasi va uning ilm-ma’rifatga oid maqolalari modernizatsiya jarayonining nazariy asoslarini belgilab berdi. U o‘z maqolalarida millatning ravnaqi uchun tafakkur islohoti zarurligini ta’kidlab, “Bir til, bir din, bir tafakkur” shiorini ilgari surgan. Bu nafaqat madaniy birlik, balki intellektual uyg‘onish tamoyili sifatida ham izohlanadi.

Jadidchilik harakati bo‘yicha adabiyotlar – Fitrat, Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy va Cho‘lpon kabi mutafakkirlarning asarlari Gasprinskiy ta’sirida shakllangan modernizatsiya falsafasining davomchilari sifatida qaraladi. Ularning ilm-ma’rifat, milliy tafakkur va matbuot erkinligi haqidagi fikrlari Gasprinskiyning modernizatsiya konsepsiyasini kengaytirib, yanada mustahkam asos yaratdi.

G‘arb va Sharq falsafasi nuqtai nazaridan – modernizatsiyaning tafakkur islohoti sifatida qaralishi G‘arb faylasuflari (Immanuel Kant, Hegel) va musulmon mutafakkirlari (Al-Afghoni, Muhammad Abduh) tomonidan ham ilgari surilgan. Kantning "Aqlni ishlatish jasorati" tamoyili va Gasprinskiyning "Ilmsizlik – zulmatdir" degan qarashlari tafakkur ozodligining butun jamiyat uchun muhimligini isbotlaydi<sup>2</sup>. Umuman olganda, adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, Gasprinskiy faqat ta’lim yoki matbuotni rivojlantirish bilan cheklanmagan, balki tafakkurning yangilanishini butun milliy modernizatsiya jarayonining markaziga

<sup>1</sup>. Gasprinskiy, I. Tarjimon gazetasi maqolalari. - Qrim: Tarjimon nashriyoti, 1883–1914.

<sup>2</sup> Gasprinskiy, I. Rossiya musulmonlari. Qrim: Tavriya nashriyoti, 1905.



qo‘ygan. Ismoil Gasprinskiyning modernizatsiya konsepsiyasini o‘rganish uchun bir nechta ilmiy usullar va metodlar qo‘llanilgan. Ularning asosiyilari quyidagilardan iborat: Analiz va sintez, tarixiy-logik metod, kompleks yondashuv, germenevtik yondashuv, sotsiologik yondashuv, faoliyatlari o‘rganilgan.

## NATIJA VA MUHOKAMA

19-asr oxiri va 20-asr boshlarida turkey xalqlari murakkab ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy turg‘unlik ichida edi. Sharq va G‘arb o‘rtasidagi tafovut tobora kuchayib, musulmon dunyosi G‘arb davlatlari bilan tenglasha olmayotganini Gasprinskiy aniq tushungan edi.

Bu qoloqlikning sabablarini chuqur tahlil qilib, u shunday xulosaga keldi: birinchidan mustamlakachilik, ijtimoiy-iqtisodiy qoloqlik, siyosiy mustaqillikning yo‘qligi; ikkinchidan, savodsizlik, an’anaviy ta’lim tizimining past darajada rivojlanganligi; uchinchidan, ommaviy axborot vositalarining zaifligi va ilg‘or ijtimoiy-madaniy g‘oyalarni targ‘ib qilishda matbuotning passivligi. Shu sababli, Gasprinskiy modernizatsiya jarayonini shunchaki tashqi texnologik o‘zgarish sifatida emas, balki tafakkur va ma’naviyatni o‘zgartirish harakati sifatida ko‘rdi.

Tafakkur insonni zulmatdan nuring sari eltuvchi eng muhim quroldir. Biroq tafakkur tarbiyasiz, ilmsizlik girdobida qolgan bo‘lsa, inson zohiran erkin, amalda esa zanjirband bo‘ladi. Ilm – insonni jaholatdan qutqaruvchi kuch, ma’rifat esa millatni qudratga eltuvchi yo‘ldir. Ilmsizlik esa shunchaki bilim yetishmovchiligi emas, balki ma’naviy qulga aylanib qolish jarayonidir.

Ilmsiz jamiyat o‘zligidan begonalashadi, mustamlakaga aylanadi, dunyoni anglash qobiliyatini yo‘qotadi va oxir-oqibat o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqidan mahrum bo‘ladi. Ismoil Gasprinskiy ta’lim va ilmning ahamiyatini aynan shu nuqtai nazardan tushunib yetdi: millatni ozod qilish uchun avvalo tafakkur ozod bo‘lishi kerak, tafakkur ozod bo‘lishi uchun esa ilm-ma’rifat yetarli bo‘lishi lozim. Ilm va ma’rifat har qanday imperianing asosiy dushmani, ilmsizlik esa mustamlakachilikning eng kuchli qurolidir. Mustamlaka tizimi insonni tanazzulga



olib borish uchun avvalo uning tafakkurini zabit etishga harakat qiladi. Ilmsiz jamiyat o‘z haqqini talab qila olmaydi, haqiqatni tanimaydi va yolg‘onni rostdan ajrata olmaydi. Gasprinskiy ta’kidlaganidek: "O‘zgalar senga hukmronlik qilmoqchi bo‘lsa, avvalo seni johil qiladi." Chunki bilimdan mahrum qilingan inson shaxs sifatida shakllanmaydi, u o‘z tafakkuri bilan yashamaydi, balki boshqalarning fikri, mafkurasi va manfaatlariga xizmat qiladi. Ta’lim har qanday jamiyatning eng muhim poydevori bo‘lib, uning rivojlanishi yoki inqirozi aynan ta’lim tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. 19-asr oxiri va 20-asr boshlarida musulmon olami va turkiy xalqlar orasidagi an'anaviy ta’lim tizimi quyidagi sabablar tufayli modernizatsiyadan qilishni taqazo etadi.

Eski madrasalar faqatgina diniy ilmlarni o‘rgatar, amaliy hayotga oid bilimlar esa qamrab olinmasdi. O‘quvchilarga faqat yodlash va takrorlash metodikasi qo‘llanildi, mustaqil fikrlash va savol berish man etildi. Fan, texnologiya, iqtisodiyot va jamiyatni boshqarish ilmlari madrasalarda deyarli o‘qitilmas edi. Natijada jamiyatning ehtiyojlari bilan ta’lim o‘rtasida uzilish yuzaga kelgan, bu esa millatning mustaqil harakat qilish salohiyatini susaytirgan. Ilmning rivojlanishi uchun til va yozma madaniyatning rivojlanishi lozim. Eski arabcha va forscha tushunchalar ko‘plab oddiy odamlar uchun tushunarsiz bo‘lib, bilimning ommalashishiga to‘sinqinlik qilgan.

Gasprinskiy ilm va milliy mustaqillik o‘rtasidagi bog‘liqlikni juda chuqr anglagan edi. U mustamlaka zulmidan ozod bo‘lish uchun avvalo tafakkur mustaqil bo‘lishi kerak degan fikrni ilgari surdi[3]<sup>3</sup>. Biroq tafakkur faqat ilm orqali mustaqil bo‘lishi mumkin. Modernizatsiyaga intilayotgan jamiyatlar avvalo ilm-fanning rivojlanishi uchun sharoit yaratishi kerak. Gasprinskiy ta’lim tizimini isloh qilish orqali xalqning ongini uyg‘otish maqsadida quyidagi muhim qadamlarni taklif qildi.

<sup>3</sup> Abdurashidov, B. Jadidchilik harakati va ma’rifiy islohotlar. Toshkent: Ma’naviyat, 2014.-



Madrasalarning isloh qilinishi, Faqat diniy ilmlar emas, balki dunyoviy bilimlarni ham o‘qitish. Mustaqil tafakkurni shakllantirishga qaratilgan o‘quv tizimini aratish. Yangi o‘qitish uslublarining joriy qilinishi. Usul-i jadid mакtablarining tashkil etilishi. O‘quvchilarga tezroq va samaraliroq bilim berish metodikasini ishlab chiqish. Matbuot va kitobning rolini oshirish. Gazeta va jurnallar orqali xalqning bilim doirasini kengaytirish. Adabiyotni rivojlantirish orqali milliy tafakkurni shakllantirish.

**Matbuot va axborot vositalarining sustligi**, Ismoil Gasprinskiy shunday degan edi: “**Matbuot — xalq ko‘zi, qulog‘i va tilidir.**” Matbuotsiz jamiyat go‘yo zulmat ichra qolgan inson kabidir – u ko‘ra olmaydi, eshita olmaydi va o‘z fikrini ifoda eta olmaydi. Axborot vositalari sust bo‘lsa, xalq tafakkuri rivojlanmaydi, jamiyat haqiqat va yolg‘onni ajrata olmaydi, o‘zligini anglashdan uzoqlashadi. 19-asr oxiri va 20-asr boshlarida musulmon xalqlari orasida matbuotning rivojlanmaganligi bilim va ma’rifatning keng yoyilishiga katta to‘siq bo‘ldi. Gasprinskiy bu muammoni anglab, “**Bir millatning taraqqiyoti — uning matbuotining taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liqdir**”, deb ta’kidlagan.

Agar matbuot erkin bo‘lmasa, xalq mustamlaka mafkurasiga bo‘ysunadi, axborotdan ajraladi va tafakkur qulligiga tushib qoladi. Shu sababli, Gasprinskiy o‘zining “**Tarjimon**” gazetasini tashkil etib, xalqning ongini uyg‘otish va millatga haqiqatni yetkazish yo‘lida xizmat qildi. Chunki “**Kimki matbuotdan mahrum bo‘lsa, u o‘z kelajagidan mahrumdir**”.

Bugungi kunda ham axborot mustaqilligi va erkin matbuot masalasi jamiyat taraqqiyotining asosiy shartlaridan biri bo‘lib qolmoqda<sup>4</sup>. **Gasprinskiyning matbuotga bergan ahamiyati – tafakkur ozodligi sari tashlangan jasoratlari qadam edi.**

**Ismoil Gasprinskiy ayollarning ijtimoiy-madaniy taraqqiyotdagi roliga katta ahamiyat bergan.** Jamiyatning modernizatsiyalashuvi faqat iqtisodiy yoki



texnologik o‘zgarish bilan cheklanmaydi, u tafakkurning yangilanishi, dunyoqarashning o‘zgarishi bilan bog‘liq. Ayolning jamiyatdagi o‘rni qanday bo‘lsa, millatning tafakkuri ham shunday bo‘ladi<sup>5</sup>.

Gasprinskiy ta’kidlaganidek, **Ayol tarbiya ko‘rmasa, millat ham tarbiya topmaydi.** An’anaviy jamiyatlarda ayol ma’rifatdan chetlashtirilgan, bilim olish imkoniyatidan mahrum qilingan. Bunday sharoitda millat taraqqiyotidan umid qilish behuda, chunki ona savodsiz bo‘lsa, u kelajak avlodni ham savodsiz holda tarbiyalaydi.

Modernizatsiya jarayoni ayollar rolini oshirishsiz amalga oshishi mumkin emas. Ayollar ilm-fan, madaniyat, iqtisodiyot va siyosat sohalarida faol ishtirok etmasa, jamiyat eski tafakkurga asir bo‘lib qolaveradi. Gasprinskiy bu muammoni hal qilish uchun ayollar ta’limini rivojlantirishga katta e’tibor qaratdi.

Modernizatsiya – bu nafaqat ilmiy va texnologik taraqqiyot, balki jamiyatning tafakkur jihatidan yangilanishidir. Gasprinskiy ayollarning huquq va erkinliklarini tan olishni modernizatsiyaning ajralmas qismi deb bilgan. "**Ayol qullikda bo‘lsa, millat ham qullikda bo‘ladi**", degan so‘zлari bilan u ayollarning ijtimoiy hayotda erkin bo‘lishi millat mustaqilligi uchun muhim ekanligini ta’kidlagan<sup>6</sup>.

Agar ayol erkin fikrlay olsa, bilim olsa, jamiyat ham erkin fikrlay boshlaydi. Agar ayol johillikda qolsa, butun jamiyat johillikdan chiqolmaydi. Shuning uchun modernizatsiya yo‘lidagi har qanday islohot avvalo ayollarning ta’lim olishi va huquqlarini kengaytirish bilan bog‘liq bo‘lishi shart. Gasprinskiy modernizatsiya faqat erkaklar zimmasida emas, balki ayollarning ham jamiyatdagi faol ishtiroki orqali amalga oshishini tushungan. Uning ta’lim va matbuot orqali ayollarga murojaat qilishi, ularni o‘z huquqlari va erkinliklarini anglashga chorlagani zamonaviy modernizatsiya jarayonining tamal toshlaridan biri bo‘ldi. **Bugungi**

<sup>5</sup> Devlet, N. Ismail Gasprinskiy va Turkiy dunyo uyg‘onishi.

<sup>6</sup> Bennigsen, A. & Wimbush, S. Muslim National Communism in the Soviet Union: A Revolutionary Strategy for the Colonial World. - Chicago: University of Chicago Press,



## kunda ham ayollar erkinligi va ma'rifati millatning taraqqiyotini belgilovchi asosiy omillardan biri bo'lib qolmoqda.

Har qanday modernizatsiya jarayoni o'ziga qarshi bo'lgan kuchlar bilan to'qnash keladi<sup>7</sup>. Gasprinskiyning g'oyalari ham an'anaviy qarashlarni targ'ib qiluvchilar tomonidan qattiq tanqid qilindi. Mustamlakachi hukumatlar esa uning faoliyatini nazorat ostiga olishga harakat qildi.

Biroq uning fikriy merosi va modernizatsiya harakati to'xtamadi. Uning ta'lismi va matbuot sohasidagi islohotlari butun turkiy dunyoda jadidchilik harakati shaklida davom etdi. Jadidlar harakati Gasprinskiy boshlagan modernizatsiya falsafasining mantiqiy davomchisi bo'ldi.

Gasprinskiyning modernizatsiya konsepsiysi bizga shuni o'rgatadiki. Modernizatsiya faqat tashqi o'zgarish emas, tafakkurning tubdan yangilanishidir. Milliy taraqqiyot avvalo til, ta'lismi va matbuot orqali amalga oshadi. Mustamlaka zulmidan ozod bo'lish uchun avvalo ong ozod bo'lishi lozim. Texnologik rivojlanish va ma'naviy qadriyatlar uyg'un holda bo'lishi kerak.

### Xulosa

Ismoil Gasprinskiyning modernizatsiya konsepsiysi faqat tashqi yoki ko'rindigan o'zgarishlar bilan cheklanmaydi, balki ichki, ma'naviy va intellektual yangilanishni ham o'z ichiga oladi. Uning g'oyalari jamiyatni faqat texnologik va iqtisodiy taraqqiyotga qaratilmagan, balki tafakkurning yangilanishi, o'zligini anglash va tarixiy ongi yangilashni ham talab qiladi. Gasprinskiy uchun modernizatsiya nafaqat G'arbning ilg'or tajribasini qabul qilish, balki Sharqning o'ziga xos madaniy va tarixiy an'analarini ham inobatga olish zarurligini ta'kidlagan. Gasprinskiyning modernizatsiya konsepsiysi ichki tafakkur islohotini o'zida mujassamlashtirgan. U, ta'lismi va matbuot islohoti orqali nafaqat tashqi dunyo bilan aloqalarni, balki millatning o'zini anglash, uning tarixiy ildizlarini va madaniy merosini yangilashni maqsad qilgan. Bu yondashuv, asosan, milliy

<sup>7</sup> Zenkovsky, S. Pan-Turkism and Islam in Russia. Harvard University Press, 1960.



tafakkur va ma'naviyatni saqlashga qaratilgan edi. Gasprinskiy, millatning taraqqiyoti uchun uning tafakkuri va ma'naviy dunyoqarashi yangilanishi kerak, deb hisoblagan. Bu yangilanish faqatgina G'arb ta'sirida emas, balki milliy o'zligidan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi kerak edi. Umuman olganda, Gasprinskiyning modernizatsiya konsepsiysi faqat tashqi o'zgarishlar va iqtisodiy taraqqiyot bilan bog'liq emas, balki u milliy o'zlikni saqlagan holda, jamiyatning tafakkurini, dunyoqarashini va ma'naviyatini yangilashga intiluvchi chuqur bir jarayon edi. Uning g'oyalari, millatni haqiqiy mustaqillikka erishish uchun ichki uyg'onish va o'zligini anglash zarurligini ko'rsatadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.Gasprinskiy, I. Tarjimon gazetasi maqolalari. Qrim: Tarjimon nashriyoti, 1948 y. 13 son. 7-bet
- 2.Gasprinskiy, I. Rossiya musulmonlari. Qrim: Tavriya nashriyoti, 1905 y. 198-206 betlar.
- 3.Fitrat, A. O'zbek yoshlariga. Toshkent: Turkiston nashriyoti, 1919 y. 217 bet.
- 4.Abdurashidov, B. Jadidchilik harakati va ma'rifiy islohotlar. Toshkent: Ma'naviyat, 2010 y. 109-123 betlar.
- 4.Behbudiy, M. Millat taraqqiyoti va matbuot. Samarqand: Sadoi Turkiston, 1914 y. 44 son 3-bet
- 5.Devlet, N. Ismail Gasprinskiy va Turkiy dunyo uyg'onishi. Istanbul: Türk Dünyası Araştırmaları Vakfı, 1999 y. 242-252 betlar
- 6.Bennigsen, A. & Wimbush, S. Muslim National Communism in the Soviet Union: A Revolutionary Strategy for the Colonial World. Chicago: University of Chicago Press, 1979 y. 195-198 betlar
- 7.Zenkovsky, S. Pan-Turkism and Islam in Russia. Harvard University Press, 1960 y. 132-145 betlar